

## IMKONIYATI CHEKLANGAN O'QUVCHILAR DUNYO VA O'ZBEKISTON E'TIBORIDA

Mannabova Gulmira Kaxxorovna  
Toshkent imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan 1-kasb-hunar maktabi ishlab chiqarish ta'lifi ustasi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada bugungi kunda yurtimizda va jahon miqyosida imkoniyati cheklangan o'quvchilarga qaratilayotgan e'tibor hamda imkoniyatlar xususida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** imkoniyati cheklangan, ta'lif, kasb-hunar, imkoniyat, e'tibor...

Barchamizga ma'lumki, bugungi kunda mamlakatimizda imkoniyati cheklangan bolalar uchun qator imkoniyatlar yaratilgan bo'lib, ularning ta'lif-tarbiya olishlari, kasb-hunar egallashlari va hayotda o'z o'rinalarini topishlari uchun sharoitlar bisyor. Jumladan, yurtboshimiz rahnamoligida imkoniyati cheklangan bolalar uchun maxsus binolar qurilib, zamonaviy jihozlar bilan jihozlanganligi fikrimizning yaqqol dalilidir. Ularga ta'lif-tarbiya berayotgan hamda kasb-hunarga yo'naltirayotgan ishlab chiqarish ustalari ham pedagogic mahoratga va tajribaga ega bo'lishi talab etiladi. Zero, inkluziv ta'lifning mazmun-mohiyati ham imkoniyati cheklangan bolalarni hayotga muhabbat uyg'otish va sog'lom bolalardan kam qilmay tarbiyalashdir. Keling, shu o'rinda inklyuziv, jumladan, imkoniyati cheklangan ta'lif tamoyillari haqida fikr yuritsak.



Inklyuziv ta'lif tizimida jahon miqyosida amaliyatga joriy qilish borasida bugungi kunga qadar ham juda ko'plab muammolar va to'siqlar mavjud. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

- Salbiy munosabat;
- Hamjamiyatda ko'rinaslik;
- Moddiy mablag' muammolari;
- Jismoniy moslashtirish;
- Sinfdagi o'quvchilar soni;
- Qaramlik;
- Favqulodda vaziyatlar, mojorolar va qochoqlar....

Salbiy munosabat-maxsus ehtiyojli bolalarning umumta'lif muasasalari tizimida ta'lif tarbiya olaishlari uchun eng katta to'siq bo'lsa kerak. Salbiy munosabat muammosining

mazmuni shundaki, ota-onalar, hamjamiyat a'zolari, o'qituvchilar, umumta'lim muassasalarini hodimlari, boshqaruv organlaridagi hatto maxsus ehtiyojli bolalarning o'zlaridagi umumta'lim muassasalarida ta'lim tarbiya olishlariga nisbatan UNICEF inklyuziv ta'limni O'zbekiston ta'lim tizimiga kiritish masalalari bilan shug'ullanadi. Inklyuziv ta'lim vazifasi bolalarning qobiliyatları va holatidan qat'i nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etishdan iborat. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobjiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lishlari uchun oilada yashashlari va o'z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi. Inklyuziv ta'lim tizimi nogironlar aravachasidagi bola yaqin atrofda joylashgan har qanday maktabda ta'lim olishi, o'zlashtirishda qiynalayotgan bo'lsa, o'qish va yozishga o'rganish uchun maxsus yordamga ega bo'lishi, darslarga qatnamay qo'ygan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli yordam ko'rsatilishini kafolatlaydi.

Tengdoshlaringiz, sinfdoshlaringiz orasida imkoniyati cheklangan (nogiron) bolalar ham bor, to'g'rimi? Siz ular bilan do'stlashib, birga dars tayyorlaysizmi, birga o'ynaysizmi?

Axir ular ham siz kabi jamiyatda baxtli bo'lishga haqli, shunday emasmi?

Inklyuziv ta'lim hamma bolalarning bir xil maktab va bir xil sinfonada – bir xil sharoitda ta'lim olishini anglatadi. Ya'ni imkoniyati cheklangan bola sog'lom bolalar bilan bir xil e'tiborda o'qiy olishi kerak. O'zbekistonda oilaviy sharoitidan qat'i nazar, barcha bolalar davlat umumta'lim maktablariga qatnaydi. Bu davlat tomonidan kafolatlangan.

Xo'sh nega inklyuziv ta'lim zarur? Ba'zan tengdoshlarimiz, maktabdoshlarimiz orasida yoki mahallada imkoniyati cheklangan bolalarni ko'rib qolsak, tushunib-tushunmasdan uni ajratib qo'yishga, u bilan muloqot qilmaslikka harakat qilamiz. Bu noto'g'ri, aslida ular bilan o'rtoq bo'lib, bir jamoa bo'lib yashasak, ularning baxtli hayot kechirishlariga hissa qo'shishimiz mumkin. Jamiyatda har bir bola baxtli bo'lishga haql!



Ma'lumot uchun quyidagi faktlarni keltirmoqchiman:

Respublikamizda imkoniyati cheklangan bolalarga mo'ljallangan ixtisoslashtirilgan 86 ta maktabda 22 mingdan ortiq, sanatoriy turdag'i maktab-internatlarda 6 mingdan ortiq o'quvchi, uy sharoitida esa 13 mingdan ortiq o'quvchi ta'lim oladi. Hozirda O'zbekistonda 3 mingdan ortiq umumiyl o'rta ta'lim maktablarida 13 ming nafarga yaqin o'quvchilar inklyuziv ta'lim bilan qamrab olingan. 2025-yilgacha 40% imkoniyati cheklangan bolalar inklyuziv ta'limga jaib etilishi rejalashtirilmoqda.

Xullas, imkoniyati cheklangan o‘quvchilar dunyo va O‘zbekiston e’tiborida ekan, ularning kasb-hunarga yo‘naltirish masalasi ham dolzarbligicha qoladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Maktablar hamma uchun – Save the children – 2002-yil.
2. Po‘latov, Sh.N., Rabindranat Tagorning Hindiston ilm-ma’rifatga qo‘shgan xissasi.// “SCIENCE AND EDUCATION” Scientific journal Volume 1, Special issue 2020-yil.